



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 4 - avgust

223-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Yangihayot tumani hududidagi yer maydonlarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagagi 71-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmonining ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda Yangihayot tumani hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha majmuasining bildirgisini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagagi 71-sonli “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiyashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-sonli Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot tumani hokimining o‘rinbosarlari (D.Xalisov), Davlat kadastrlar palatasi Toshkent shahar boshqarmasi Yangihayot tumani filiali boshlig‘i (I.Saidrasulev):

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta‘minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6243-son Farmoni talablaridan kelib chiqqan holda ilovaga muvofiq yer maydonlari ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarilishi ta‘minlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining Davlat kadastr palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (J.Karimov)dan ushbu qarorga muvofiq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘sh yer uchastkalariga nisbatan Yangihayot tumani hokimligiga belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish so‘ralsin.

4. Ushbu qarorga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yer uchastkalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun elektron onlaysauksion orqali ijara xuquqi asosida realizatsiya qilinishi belgilab qo‘yilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Xalisov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 4-avgustdagি
223-14-220-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Yangihayot tumani hududidagi yer maydonlarini elektron-onlayn-auksion
savdolariga chiqariladigan yer maydonlari**

RO'YXATI

T/R	Tuman nomi	Yer uchastkasi manzili	Yer uchastkasining “Yerelektron” AATdagи unikal raqami	Maydoni (hektar)
1.	Yangihayot tumani	“Toshkent” MFY	MG1726292027/2	0,353996
2.	Yangihayot tumani	“Toshkent” MFY	MG1726292027/1	1,000040